

ARCHA UNSIMON QURTI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

*To'raboyev Mirzaraxmat Baxtiyor o'g'li
Mo'ydinova Kamola Baxtiyor qizi*

Annotatsiya: Ma'lumki mamlakatimizda Archa daraxtiga katta zarar keltirayotgan archa unsimon zararkunandasini juda yaxshi bilamiz. Bu zararkunanda mamlakatimizdagi archalarga juda katta zarar berib kelmoqda. Bu dolzarb muammoga aylanishga ulgurdi.

Kalit so'zlar: Archa unsimon qurti tarixi, archa unsimon qurti zararkunandasi, archa unsimon qurtiga qarshi kurash.

“Archalar qishin yozin yam - yashil bo'ladi” degan gap afsuski o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Archa unsimon qurti tufayli archa daraxtlari o'z yashilligini yo'qotib bormoqda. Bu zararkunanda archa daraxtini novda va barglarini so'rib zararlab, barg ustki qismlarini istemol qilib katta qismini zararlamoqda. Archa unsimon qurtini tarixiga keladigan bo'lsak.

O'rta osiyoga birinchi marta 1953-yilda Tojikistonda aniqlangan. O'zbekistonda esa birinchi marta 2009 yilda aniqlangan. Mana shu yildan beri mamlakatimizdagi archa daraxtlarini zararlab kelmoqda. Bu zararkunanda archaning hamma turini ham zararlamaydi. U archa daraxtining Virgin turini suyib istemol qiladi. Qolgan archala turlarini deyarli zararlamaydi.

«Archa unsimon» (*Pseudococcus vovae* Nass) qurti zararkunandaning lichinka va urg'ochilari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadi va ular barcha yer ustki qismlari bilan oziqlanadi.

Kattaligi 2-3 millimetr bo'lgan bu qurt sarg'ish, qizg'ish, kulrang tusda bo'lib, mart-aprel oylarida paydo bo'ladi. Ularning tuxum qo'yishi may-iyun oylarida kuzatilib, o'rtacha 280 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumdorligi juda yuqori bo'ladi. 280 dan 425 tagacha tuxum qo'yadi. 1 ta avlodi rivojlanishi uchun 40 kun kerak bo'ladi. Respublikamizda 1 mavsumda 4-5 tagacha bo'g'in beradi.

Yashash tarziga ko'ra tekinox'r. Oziqlanish xususiyatiga ko'ra monofag hisoblanib, o'simlikning ignabarglarida va shoxlaridan oziqlanadi. Asosiy ozuqa o'simligi – *Juniperus L(virgin)*. sanaladi.

Zararlangan archani zarari keyingi yilga namoyon bo'ladi. Sababi 1 yil mobaynida archa unsimon qurti archani so'kini so'radi. 1 yildan keyin qurib qoladi. Keyingi yil kelib qaraganda shoxlar qurib qolgan bo'ladi. Shuning uchun bu dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Bunga kurash juda og'ir. Bundan tashqari shiralar bor. Ular ham archaga zarar beradi. Lekin shiraga qarshi kurashish osonroq. Oltinko'zni qo'ysak ham bo'ladi. Shirani sonini balansiga keltirib qo'yiladi.

Zararkunandaga qarshi kurash choralari qo'llashdan oldin.

Agrotexnik tadbirlar o'tkaziladi. Archani har haftada suv purkab yuvib turiladi. Bu nima uchun kerak? Erta bahorda archaga turli zararkunadalar tushib, archada rivojlana boshlaydi. O'z tuxumlarini qo'yishni boshlaydi. Bulardan tashqari archa unsimon qurti ham aprel oyidan paydo bo'lib archani zararlay boshlaydi. Archani yuvish usuli mana shu zararkunadalar va mal'um bir tuxumlarini ko'pini tushirib yuboradi. Lekin buni o'zi yetarli bo'lmaydi. Archa unsimon qurtini rivojlanib ketmaslik uchun monitoring tadbirlari o'tkaziladi. Sababi archani suv bilan yuvganimizdan so'ng zararkunada imagolari va tuxumlari tuproqqa tushib ketadi va u yerda rivojlanib qayta archaga chiqib yana zararlay boshlaydi. Shuning uchun boshqa kurash usullarini ham qilish zarur.

Zararlangan archadan 3 yarus va 4 ta tomonidan namuna olinib.

10 sm tanlab olinadi. Zararkunanda soni sanab chiqiladi.

Masalan: tanlab olingan qismini abbot formulasi orqali hisoblab chiqiladi. Zararkunandaning IZCHM si 7 ta, kimyoviy preparatdan oldin biologik entomofaglardan foydalaniladi. Kriptolems, sinues, flokores. Biologik kurashda yana mikroorganizmlardan foydalanamiz. Mikroorganizm tarkibida Batsillus thurengiensis mikrobiologik preparatdan foydalansa bo'ladi.

Kimyoviy kurash choralari: Kimyoviy preparatlarni aholi ko'p bo'lgan joylarda qo'llash mumkin emas. Aholi ko'p bo'lgan joylarda asosan biologik kurashdan foydalaniladi. Aholi ko'p bo'lgan joylarda ham kimyoviy preparat ishlatish mumkin, lekin dozasi past bo'lishi kerak.

Buni oldini olish uchun monitoring olib borish kerak. Doimiy archalarni kuzatib turish kerak. Oltinko'z va entomofaglardan qo'llash kerak.

Kimyoviy preparatlardan 1 marta foydalanilganda archaning o'sishini 4-5 kun orqaga tortadi. Shuning uchun oldini olgan yaxshi. Birinchi navbatda imidaklaprin tarkibga ega preparat sinovdan o'tgan. Xoxlagan dorini sepish mumkin emas. Faqatgina qo'llanilishga ruxsat etilgan preparatlardan foydalanish kerak. Tarkibida efir moylar, neft qoldig'i moylaridan ajratib olingan preparatlar bor. Unga avipron degan preparatimiz bor. Normasi balandroq gektariga 10-15 l qo'llaniladi. Bu preparatni archa unsimon qurti ustiga sepiladi. U qurti ustida sharsimon plyonka hosil qiladi va hashorot nafas ololmaydi. Uni ishlashi +7 C dan +27 C gacha ishlaydi. Harorat undan oshsa neft qoldiqlaridan ajratib olingan preparat foyda bermaydi. Kimyoviy preparatlar ham + 30 C dan oshganda foyda bermaydi. Quyoshda parlanib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu zararkunandani tezroq bartaraf qilish kerak. Bu zararkunandaga qarshi kurash choralari olib borilmasa bizni atmosferamizni O₂ gaziga boyitib beradigan va atmosferadagi mikroblarni nobud qilib havoni tozalab beradigan fitonsid moddani ajratadigan archa daraxtlarining juda ko'p qismi nobud

bo'ladi. Shuning uchun bu zararkunandaga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini to'g'ri ketma ketlikda olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Navoiy viloyati O'simliklar karantini va ximoyasi Konimex tumani agronom inspektori M.Ubaydullayev, F. Umurova. "Mediya Makoni " gazetasining rasmiy sayti.
2. Borchsenius N.S. O'rmon daraxtlariga yordam berish uchun qurtlar va o'rmalovchi hashorotlarni yig'ish va o'rganish boshpana kamarlarida ishlash. M -L : nashriyot uyi SSSR Fanlar akademiyasi, 1950-152 b.
3. Sh. Nurmatov , A.Sadullayev, B. Hasanov , E. Xolmurodov, B. Boltayev, Sultonov R, Murodov B, Nafasov Z. Igna va yaproq bargli manzarali O'rmon daraxtlarini zararkunanda , kasalliklardan himoya qilish bo'yicha tavsiyanoma – Toshkent :2013.-60b.